



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

GREEN ECONOMY AND DEVELOPMENT

Social, Economic, Technological, Scientific and Popular Science Journal

2026-YIL / AVGUST / 8-SON,
II-QISM



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

*Elektron nashr. 2026-yil, avgust.
II-qism*

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoiraz Azimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Faxridinov Zafarjon Faxridin o'g'li, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi HIJQKD boshqarma boshlig'i
Utayev Uktam Choriyevich, Anijon viloyati prokurorining o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi IJQK Departamentining Namangan viloyati boshqarmasi boshlig'i
Buzrukhonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golischeva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
Abdukarimova Dinara Rustamxanovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
Ikramov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongirاتبay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Fakhridinov Zafarjon Fakhridin ogli, Head of the DCEC under the Prosecutor General's Office of the Rep. of Uzb.
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Prosecutor of Anijan Region
Ochilov Farkhod, Head of the Namangan Regional Department of the Department of Internal Affairs of Rep. of Uzb.
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyea Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.
Abdukirimova Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,
O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy
jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va
taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi
336/3-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

KICHIK BIZNESNI RIVOJLANTIRISHDA TO'G'RIDAN-TO'G'RI XORIJIY INVESTITSİYALARNING AHAMIYATI.....	12
Usmonova Zarina	
O'ZBEKISTONDA YASHIL IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHNING HUQUQIY MEXANIZMLARI VA MAHALLIY DAVLAT HOKIMIYATI ORGANLARI FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI	19
Zaripova Sabrina Zafar qizi	
O'ZBEKISTON TO'QIMACHILIK TARMOG'IDA INTEGRATSIYALASHGAN MENEJMENT TIZIMINI RAQAMLI TRANSFORMATSIYA ASOSIDA JORIY ETISH: SAMARADORLIK, TO'SIQLAR VA ISTIQBOLLAR.....	25
Sobirov Shohruh Shuxratovich	
ISTE'MOLCHILAR ORASIDA IJTIMOYIY TARMOQLARDAGI QISQA FORMATLI VIDEOKONTENTNING IMPULSIV XARID XATTI-HARAKATLARIGA TA'SIRI.....	30
Ra'no Balxiboyeva Davron qizi	
KAPITAL BOZORI ORQALI TIJORAT BANKLARI RESURS BAZASINI KENGAYTIRISH YO'LLARI.....	40
Otabek Oltiboyev	
TURIZM XIZMATLARI BOZORIDA RAQAMLASHTIRISHNING YALPI TALAB O'ZGARISHIGA TA'SIRI TAHLILI.....	45
Ochilov Laziz Siddiqovich	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA SOLIQ SIYOSATINING IQTISODIY O'SISHGA TA'SIRI VA YANGI ISLOHOTLARNING MAKROIQTISODIY TAHLILI	54
Sanakulova Iroda Abrorovna	
GLOBAL IQLIM O'ZGARISHI SHAROITIDA CHO'L YAYLOVLARI IXTISOSLASHUVINI MOSLASHTIRISHNING NAZARIY-KONSEPTUAL ASOSLARI VA ILG'OR XORIJIY TAJRIBA (O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QIZILQUM CHO'L YAYLOVLARI MISOLIDA)	61
Kozokov Najmiddin Isomiddinovich	
XALQARO OLIY TA'LIM TIZIMLARIDA UNIVERSITET BOSHQARUVINING TRANSFORMATSIYASI: INSTITUTSIONAL AVTONOMIYA, HISOBDOIRLIK VA STRATEGIK BOSHQARUV MODELLARI	68
Tursunmuratov Sherzod Turdimuratovich	
THREE GENERATIONS OF REFORM: GOVERNANCE PARADIGMS AND THE MEASUREMENT GAP IN UZBEKISTAN'S SUSTAINABLE DEVELOPMENT TRANSITION	76
Salakhutdinova Yulduz Golibovna	
ГЕНЕРАТИВНЫЙ ИСКУССТВЕННЫЙ ИНТЕЛЛЕКТ И ТРАНСФОРМАЦИЯ КОНТЕНТ-МАРКЕТИНГА	82
Умарова Нозанин Алишерзода	
RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA XIZMATLAR SOHASINI RIVOJLANTIRISHNING IQTISODIY MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	88
Sapayev Abduljalol Odinayevich	
TIJORAT BANKLARIDA TO'LOV TIZIMLARI SAMARADORLIGINI OSHIRISH VA XAVFSIZLIGINI TA'MINLASH	96
Berdiboyev Oltinboy Abdiboqi o'g'li	
UMUMIY IQTISODIY MUVOZANAT NAZARIYASINING ZAMONAVIY TALQINI.....	102
Murodov Alisher Murodjon o'g'li	
РОЛЬ СИСТЕМЫ ЭКОЛОГИЧЕСКОГО МЕНЕДЖМЕНТА В ОБЕСПЕЧЕНИИ УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ ПРЕДПРИЯТИЙ И НАПРАВЛЕНИЯ ЕЁ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ	106
Уралова Сожида Анвар кизи	



JIZZAX VILOYATI TURIZMINING RIVOJLANISH DINAMIKASI, TUZILMASI VA ISTIQBOLLARI (2016–2024-YILLAR)	112
Mamadiyrov Adhamjon Qo'chqar o'g'li	
KREATIV INDUSTRIYALARNI RIVOJLANTIRISH ORQALI AHOLI BANDLIGI VA DAROMADLARINI OSHIRISH IMKONIYATLARI	121
Ulug'bekov Sardorbek Ulug'bekovich	
TIJORAT BANKLARIDA KREDITLASH AMALIYOTI SAMARADORLIGINI BAHOLASH MEZONLARI VA KO'RSATKICHLAR TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH	128
Turdiyev Eralijon Muxtarovich	
OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA BUDJETDAN TASHQARI TUSHUMLAR AUDITINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	134
Abduraxmonov Saidqosimxon Abduhamid o'g'li	
CHAKANA BANK XIZMATLARINI RAQAMLI TRANSFORMATSIYA QILISHNING NAZARIY JIHATLARI	138
Asqarov Fayzullo G'iyosiddin o'g'li	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA BILIM VA MALAKALARNI RAQAMLI BAHOLASH TIZIMINING NAZARIY-IQTISODIY ASOSLARI	148
Abdiyev Nosir Raximovich	
Muzaffarova Mohira Nuraliyevna	
O'ZBEKISTON BANK SEKTORIDA MOLIYAVIY JINOYATLARGA QARSHI KURASHISHDA SUN'YI INTELLEKT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI	154
Berdiboyev Oltinboy Abdiboqi o'g'li	
SURXONDARYO VILOYATIDA TURIZM INFRATUZILMASINING HUDUDII RIVOJLANISH DARAJASINI QIYOSIY BAHOLASH	160
Omonova Nigora Bahodir qizi	
ZAMONAVIY TO'LOV TIZIMLARINING INSTITUTSIONAL RIVOJLANISHINI STRATEGIK BOSHQARISH MEXANIZMLARI	167
Iskandarov Xurshid Iskandarovich	
TEXNOLOGIK AVLOD ALMASHINISHI SHAROITIDA ALOQA KORXONALARI TOVAR-MODDIY ZAXIRALARINING QADRSIZLANISHINI HISOBGA OLISH USLUBIYATINI TAKOMILLASHTIRISH	175
Jamilov Jushqin Jonon o'g'li	
SANOAT KORXONALARINING INNOVATSION RIVOJLANISH DARAJASINI ANFIS ASOSIDA MODELLASHTIRISH	181
Avazova Nafisa Namazovna	
O'ZBEKISTONDA KICHIK BIZNESNING RAQAMLI RIVOJLANISHINI BAHOLASH: O'ZSME-DDI MODULINING METODOLOGIYASI VA AMALIY JORIY ETISH MEXANIZMI	186
Rajabov Sirojiddin Mansurovich	
ISLOM MOLIYASI TAMOYILLARINING IQTISODIY SAMARADORLIKNI TA'MINLASHDAGI AHAMIYATI	193
Kenjaeva Durdona Ravshan qizi	
ФАКТОРНЫЙ АНАЛИЗ КАК ИНСТРУМЕНТ ИССЛЕДОВАНИЯ ПРОИЗВОДСТВЕННОЙ ЭФФЕКТИВНОСТИ ПРОМЫШЛЕННЫХ ПРЕДПРИЯТИЙ	198
Аюбов Ойбек Улугбек угли	
YASHIRIN IQTISODIYOTGA QARSHI KURASHISHDA MA'LUMOTLAR TAHLILINI MATEMATIK MODELLASHTIRISH	204
Raximov Sarvarbek Abdumutalibjonovich	
KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINI QO'LLAB-QUVVATLASH, ULARNI MOLIYALASHTIRISHNI RAG'BATLANTIRISH BO'YICHA CHORA-TADBIRLARNING ASOSIY YO'NALISHLARI	211
Umarova Gulzodxon Qodirbekovna	



MEHMONXONA XO'JALIKLARI SAMARADORLIGINI BAHOLASHNING INTEGRAL MEKANIZMI VA EKONOMETRIK MODELLASHTIRISH	216
Rahimov Hasan Abdusaitovich	
NOMODDIY AKTIVLAR BO'YICHA OSHKORALIKNI TAKOMILLASHTIRISH VA MILLIY HISOBNI XALQARO STANDARTLAR BILAN UYG'UNLASHTIRISH.....	221
Ishankulov Izzatilla Nurillayevich	
SANOATLASHTIRISH ORQALI MILLIY IQTISODIYOT RAQOBATBARDOSHLIGINI TA'MINLASHDA UNUMDORLIK OMILI.....	226
Erkayev Akrom Normuxammadovich	
INNOVATSION O'ZGARISHLAR ASOSIDA AHOLI FAROVONLIGINI OSHIRISHNING 2030-YILGACHA MO'LJALLANGAN PROGNOZ SSENARIYLARI VA ULARNING SEZGIRLIK TAHLILI	232
Amrullayev Dadaxon	
ЭКОНОМЕТРИЧЕСКОЕ МОДЕЛИРОВАНИЕ ЭНЕРГЕТИЧЕСКОЙ УЯЗВИМОСТИ СТРАН ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВОЙ И СТРУКТУРНОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ	237
Эркинбаева Камила Жавланбековна	
TIJORAT BANKLARI BIZNES MODELINING RAQAMLI TRANSFORMATSIYASI: ZAMONAVIY TENDENSIYALAR VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI	243
Sh. Nurullayeva	
S. Narimonov	
OLIY TA'LIMDA RAQAMLI EKOTIZIMNI SHAKLLANTIRISHDAGI XAVF-XATARLAR (RISKLAR) VA BOSHQARUV MUAMMOLARI.....	249
Pirmanov Oxunjon Baxridin o'g'li	
НЕКОТОРЫЕ ВОПРОСЫ РАЗВИТИЯ ДИСТАНЦИОННОГО БАНКОВСКОГО ОБСЛУЖИВАНИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ	256
Шомуродов Равшан Турсункулович	
Хакимов Хафизбек Хамза угли	
Джумабаева Гаянэ Рахимовна	
YASHIL IQTISODIYOT SHAROITIDA AVTOTRANSPORT XIZMATLARI BOZORINING RAQOBATBARDOSHLIGINI EKOLOGIK-IQTISODIY OMILLAR ASOSIDA OSHIRISH YO'LLARI	263
Sultanov Sulaymon Safarboy o'g'li	
TIJORAT BANKLARIDA TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINI KREDITLASH SAMARADORLIGINI BAHOLASH VA UNI OSHIRISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI.....	269
Abdushukurova Mehribonu Dilmurod qizi	
CHORVACHILIK MAHSULOTLARI ISHLAB CHIQRISH, YER RESURLARIDAN FOYDALANISH VA AHOLINING XARID QOBILIYATI MUVOFIQLIGINI BAHOLASH	276
Ramazonov Zafar Ulug'bekovich	
ИННОВАЦИОННЫЙ МЕНЕДЖМЕНТ СТРАХОВЫХ КОМПАНИЙ КАК ФАКТОР РАЗВИТИЯ СТРАХОВОГО РЫНКА	281
Мирахмедова Мафтуна Ибрагимовна	
TIJORAT BANKLARIDA FOIZ SIYOSATI SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING AMALIY JIHATLARI.....	288
Orifova Dilnoza Obid qizi	
XALQARO KREDIT LINIYALARIDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI.....	295
Aliyev Bekzod Ilhomovich	
ОРГАНИЗАЦИОННО-ЭКОНОМИЧЕСКИЕ ПОДХОДЫ К СОВЕРШЕНСТВОВАНИЮ УЧЁТА И АНАЛИЗА ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ УСЛУГ В НЕГОСУДАРСТВЕННЫХ ВЫСШИХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ОРГАНИЗАЦИЯХ	301
Холикова Дурдона Бунёдjon кизи	



TOSHKENT VILOYATIDA ISHLAB CHIQARISH SOHASIDA KICHIK BIZNESNING RIVOJLANISH TENDENSIYALARI VA HUDUDIIY DIFFERENSIATSIYASI.....	308
Salimov Burxoniddin	
IJTIMOIIY-IQTISODIIY ADOLATNI TA'MINLASHDA SINERGETIK YONDASHUV: ZANJIRLI ADOLAT KONSEPSIYASI.....	314
Alimov Nasimjon Hoshimovich	
AQLLI SHAHAR TIZIMIDA IJTIMOIIY SOHA BOSHQARUVI SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING TASHKILIIY-IQTISODIIY MEXANIZMLARI.....	319
Radjabov Bunyod Abduxalilovich	
QO'SHILGAN QIYMATNI TAQSIMLASHNING SAMARALI SOLIQ MEXANIZMIGA OID XORIJ TAJRIBALARI.....	326
A.A. Bobomurodov	
O'ZBEKISTONNING "YASHIL IQTISODIYOT" TIZIMIGA O'TISH ZARURIYATI VA XIZMATLAR SOHASI UCHUN IQTISODIIY AHAMIYATI.....	333
Y.M.Xalikov	
OLIIY TA'LIM TASHKILOTLARIDA AKADEMIK FAOLIYATNI BOSHQARISHNING NAZARIY VA METODOLOGIK ASOSLARI.....	342
Ixtiyorov Bekzod Zulfiqor o'g'li	
YOSHLARNING RAQAMLI MEHNAT PLATFORMALARIDA BARQAROR BANDLIGINI RISKKA ASOSLANGAN STRATEGIK BOSHQARISH.....	349
Palvonova Sevara Baxromovna	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA XIZMAT KO'RSATISH TARMOQLARIDA INNOVATSION BOSHQARUV TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH.....	355
Almanov Ilhom Sultonovich	
MAKTABGACHA TA'LIM XIZMATLARINI GEYMIKATSIYALASH ASOSIDA TA'LIM SIFATI VA IQTISODIIY SAMARADORLIKNI OSHIRISH	362
Aslonova Rushano Ilxomovna	
KICHIK BIZNES SUBYEKTLARIDA RAQAMLI PLATFORMALARDAN FOYDALANISHNING IQTISODIIY NATIJADORLIKKA TA'SIRINI BAHOLASH.....	368
Tursunxo'jayeva Gulnoza Jamoliddin qizi	
HUDUDLARNING IQTISODIIY RIVOJLANISHIDA ISTE'MOLCHILAR HUQUQLARINI HIMOYA QILISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH	374
Xolmatov Azamatjon Abdupattoyevich	
СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕХАНИЗМОВ ГОСУДАРСТВЕННОГО РЕГУЛИРОВАНИЯ ЭКСПОРТА В УЗБЕКИСТАНЕ: ЭКОНОМЕТРИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ЭКСПОРТНОЙ АКТИВНОСТИ ПРЕДПРИЯТИЙ	380
Муниса Турдибаева	
LOYIHA MENEJERLARINING SOFT SKILLS KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHNING LOYIHALAR IQTISODIIY SAMARADORLIGIGA TA'SIRI	394
Zairova Farida To'xtamurod qizi	
TIBBIY XIZMAT KO'RSATUVCHI KORXONALAR FAOLIYATI SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA IQTISODIIY KO'RSATKICHLAR TIZIMIDAN FOYDALANISH.....	400
O'roqov Firdavs Ortiqniyoz o'g'li	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA KORXONALAR FAOLIYATI SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING NAZARIY-USLUBIIY ASOSLARI	407
Jumaev Sohob Baxodirovich	
O'ZBEKISTONDA RAQAMLI VA BARQAROR TURIZMNI RIVOJLANTIRISHNING TRANSFORMATSIYON MODELII.....	412
Murodullayeva Guljaxon A'zamjon qizi	
INSON KAPITALINI BOSHQARISHNING ILMIY-NAZARIY VA USLUBIIY ASOSLARI	418
Djalilova Dilbar Abdikarim qizi	



RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA O'ZBEKISTONNING INVESTITSION JOZIBADORLIGINI OSHIRISH MEXANIZMLARI	426
Olimboyeva Nazokat Abdujabbor qizi	
KICHIK VA O'RTA BIZNES SUBYEKTLARIDA INTEGRALLASHGAN RISKKA YO'NALTIRILGAN AUDIT MODELIDAN FOYDALANISH USLUBIYOTI.....	431
Muydinov Erkin Jamaldinovich	
MINTAQA IQTISODIYOTINI BARQAROR RIVOJLANTIRISHDA TADBIRKORLIK FAOLIYATI SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING INSTITUTIONAL MEXANIZMLARI	441
Bekbergenov G'ayrat Shuxratovich	
YENGIL SANOAT KORXONALARINING EKSPORT FAOLIYATINI SOLIQ MEXANIZMLARI ASOSIDA MOLIVAVIY RAG'BATLANTIRISH	446
O'rino va Umida Qodirjonovna	
SOG'LIQNI SAQLASHNING YAGONA RAQAMLI EKOTIZIMIDA KIBERXAVFSIZLIK RISKLARINI BOSHQARISH METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH	450
Turayeva Nafisa Odiljonovna	
XORAZM VILOYATIDA YER BOZORI INFRATUZILMASINI TAKOMILLASHTIRISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI	456
Ubaydov Mirshod Ismailovich	



XORAZM VILOYATIDA YER BOZORI INFRATUZILMASINI TAKOMILLASHTIRISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI

Ubaydov Mirshod Ismailovich
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,
mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya. Maqolada Xorazm viloyatida yer bozori infratuzilmasining amaldagi holati yer uchastkalarini xususiylashtirish ko'rsatkichlari asosida tahlil qilingan. Arizalarni ko'rib chiqish, orderlar berish, rad etish holatlari va tushgan mablag'lar baholangan. Tahlil natijasida mavjud muammolar aniqlanib, yer bozori infratuzilmasini takomillashtirish bo'yicha amaliy takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: yer bozori, yer uchastkasi, xususiylashtirish, yer bozori infratuzilmasi, kadastr, order, raqamlashtirish, Xorazm viloyati.

Abstract. The article analyzes the current state of land market infrastructure in the Khorezm region based on land privatization indicators. It evaluates the processing of applications, issuance of privatization orders, rejection cases, and revenues generated. Based on the results, existing problems are identified and practical recommendations for improving land market infrastructure are proposed.

Keywords: land market, land plot, privatization, land market infrastructure, cadastre, privatization order, digitalization, Khorezm region.

Аннотация. В статье проанализировано современное состояние инфраструктуры земельного рынка Хорезмской области на основе показателей приватизации земельных участков. Рассмотрены процессы обработки заявлений, выдачи ордеров, случаи отказа и объем поступивших средств. По результатам анализа выявлены существующие проблемы и разработаны практические предложения по совершенствованию инфраструктуры земельного рынка.

Ключевые слова: земельный рынок, земельный участок, приватизация, инфраструктура земельного рынка, кадастр, ордер, цифровизация, Хорезмская область.

KIRISH

O'zbekistonda amalga oshirilayotgan yer islohotlari doirasida qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagan yer uchastkalarini xususiylashtirish, yerga bo'lgan huquqlarni davlat ro'yxatidan o'tkazish va tegishli xizmatlarni raqamlashtirish bo'yicha yangi mexanizmlar joriy etilmoqda. Elektron auksionlar, raqamli kadastr va idoralararo axborot almashinuvi yer munosabatlarida shaffoflikni oshirishga xizmat qilmoqda. Biroq arizalarni ko'rib chiqishdagi kechikishlar, kadastr ma'lumotlaridagi ayrim tafovutlar, rad etish holatlarining ko'pligi va to'lov bosqichidagi muammolar mazkur tizimni hududlar kesimida yanada takomillashtirish zarurligini ko'rsatadi.

Xorazm viloyatida ham yer uchastkalarini xususiylashtirishga bo'lgan talab ortib bormoqda. Shu bilan birga, kelib tushgan arizalar va berilgan orderlar soni o'rtasida sezilarli farq mavjudligi yer bozori infratuzilmasining huquqiy, tashkiliy, axborot va raqamli mexanizmlarini kompleks baholashni talab etadi. Ayniqsa, rad etilgan arizalarning sabablarini aniqlash, xizmat ko'rsatish jarayonlarini soddalashtirish, kadastr ma'lumotlarining ishonchiligidini oshirish hamda fuqarolar va tadbirkorlar uchun qulay sharoit yaratish dolzarb vazifalardan hisoblanadi.

Mazkur tadqiqotning maqsadi Xorazm viloyatida yer bozori infratuzilmasining amaldagi holatini yer uchastkalarini xususiylashtirish ko'rsatkichlari asosida baholash, mavjud muammolarni aniqlash hamda uni takomillashtirishning ustuvor yo'nalishlarini ishlab chiqishdan iborat. Tadqiqot natijalari hududda yerga oid xizmatlarning tezkorligi va shaffofligini oshirish, rad etilgan arizalar ulushini kamaytirish hamda yer resurslaridan foydalanishning iqtisodiy samaradorligini yuksaltirishga qaratilgan amaliy takliflarni shakllantirish imkonini beradi.



MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Yer bozori infratuzilmasi yer uchastkalariga bo'lgan huquqlarni shakllantirish, davlat ro'yxatidan o'tkazish, baholash, ijaraga yoki mulkka berish, aukcion savdolarini tashkil etish, bitimlarni rasmiylashtirish hamda yerga oid axborotni bozor ishtirokchilariga yetkazib beruvchi huquqiy, iqtisodiy, tashkiliy va raqamli institutlar majmuasini anglatadi. Mazkur infratuzilmaning samaradorligi, avvalo, yerga bo'lgan huquqlarning kafolatlanganligi, kadastr ma'lumotlarining aniqligi, axborotning ochiqligi va bitim xarajatlarining pastligi bilan belgilanadi.

K. Deininger tadqiqotida yer siyosatining iqtisodiy o'sish, kambag'allikni qisqartirish va investitsion faollikni oshirishdagi ahamiyati asoslab berilgan. Muallifning fikricha, yerga bo'lgan huquqlarning aniq belgilanishi va ishonchli himoya qilinishi yer egasi yoki foydalanuvchisining uzoq muddatli investitsiya kiritishga bo'lgan manfaatdorligini kuchaytiradi. Shu bilan birga, yer huquqlarini ro'yxatdan o'tkazish jarayonining murakkabligi, axborot yetishmasligi va yuqori tranzaksiya xarajatlari yer resurslarining samarali foydalanuvchilar o'rtasida qayta taqsimlanishini cheklaydi [8]. Ushbu yondashuv Xorazm viloyatida yer bozori infratuzilmasini takomillashtirishda huquqlar kafolati, shaffof ro'yxatga olish va bozor axborotidan foydalanish imkoniyatlarini asosiy mezon sifatida belgilash zarurligini ko'rsatadi.

I. Williamson, S. Enemark, J. Wallace va A. Rajabifard yer boshqaruvini yer egaligi, yer qiymati, yerdan foydalanish va hududlarni rivojlantirishga oid ma'lumotlarni o'zaro bog'lovchi yaxlit tizim sifatida talqin qilgan. Ularning tadqiqotida zamonaviy yer bozori faqat oldi-sotdi yoki ijara munosabatlaridan iborat emasligi, balki kadastr, geofazoviy ma'lumotlar, baholash, rejalashtirish va davlat xizmatlarining integratsiyasiga tayanishi qayd etilgan [11]. Mazkur ilmiy yondashuv Xorazm viloyatida yer uchastkalari haqidagi huquqiy, iqtisodiy va hududiy ma'lumotlarni yagona raqamli muhitda birlashtirish zarurligini asoslaydi.

FAO tomonidan ishlab chiqilgan yer egaligi va undan foydalanish huquqlarini mas'uliyatli boshqarish bo'yicha ixtiyoriy qo'llanmada yer huquqlarini tan olish, ularni shaffof ro'yxatdan o'tkazish, yerga oid axborotdan teng foydalanish, nizolarni adolatli hal etish va aholining himoyaga muhtoj qatlamlari manfaatlarini hisobga olish ustuvor tamoyillar sifatida belgilangan [10]. Bu tamoyillar Xorazm viloyatida fermerlar, dehqon xo'jaliklari, tadbirkorlar va aholi uchun yer xizmatlaridan foydalanish imkoniyatini yaxshilashda muhim metodologik asos bo'lib xizmat qiladi.

Xorazm viloyatiga bevosita bag'ishlangan muhim tadqiqotlardan biri N. Djanibekov, K. van Assche, I. Bobojonov va J.P.A. Lamers tomonidan amalga oshirilgan. Mualliflar viloyatda fermer xo'jaliklarini qayta tashkil etish va yerlarni konsolidatsiya qilish jarayonlarini o'rganganlar. Tadqiqotda yer maydonlarini yiriklashtirishning o'zi ishlab chiqarish samaradorligini avtomatik ravishda oshirmasligi, buning uchun fermerlarning huquqiy barqarorligi, mustaqil qaror qabul qilish imkoniyati, infratuzilma, moliyaviy resurslar va bozor institutlaridan foydalanish sharoiti ham yaxshilanishi lozimligi ko'rsatilgan [9]. Demak, Xorazm viloyatida yer bozorini rivojlantirish faqat yer uchastkalarini qayta taqsimlash bilan cheklanmasdan, maslahat, baholash, kreditlash, sug'urta va axborot xizmatlarini ham qamrab olishi kerak.

O'zbekistonda yer munosabatlarining asosiy huquqiy poydevori Yer kodeksi bilan belgilangan. Kodeksda yerdan oqilona foydalanish, uni muhofaza qilish, tuproq unumdorligini oshirish hamda jismoniy va yuridik shaxslarning yer uchastkalariga bo'lgan huquqlarini himoya qilish yer qonunchiligining asosiy vazifalari sifatida qayd etilgan [1]. Qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlar bo'yicha bozor munosabatlari, asosan, mulk huquqini sotish orqali emas, balki ijara huquqini belgilangan tartibda berish va uning iqtisodiy muomalasini takomillashtirish orqali shakllanadi. Shu sababli Xorazm viloyati sharoitida "yer bozori" tushunchasini yerning o'zi bilan bir qatorda undan foydalanish, ijara va boshqa qonuniy huquqlar muomalasi sifatida talqin qilish ilmiy jihatdan to'g'ri hisoblanadi.

"Davlat kadastrlari to'g'risida"gi va "Davlat yer kadastrlari to'g'risida"gi qonunlar yer uchastkalari haqidagi ma'lumotlarni yig'ish, yangilash, tizimlashtirish va ulardan foydalanishning huquqiy asoslarini belgilaydi [3; 2]. Kadastr ma'lumotlarining to'liqligi va haqiqiyliigi yer uchastkasining chegarasi, maydoni, huquqiy holati, foydalanish maqsadi va qiymatini aniq belgilash imkonini beradi. Xorazm viloyatida kadastr ma'lumotlarini muntazam yangilash, ularni geofazoviy platformalar bilan integratsiya qilish hamda manfaatdor shaxslar uchun ochiq va tushunarli shaklda taqdim etish yer bozoridagi axborot nomutanosibligini kamaytiradi.

"Ko'chmas mulkka bo'lgan huquqlarni davlat ro'yxatidan o'tkazish to'g'risida"gi Qonunda davlat ro'yxatidan o'tkazishning qonuniylik, ustuvorlik va axborot ochiqligi prinsiplari mustahkamlangan [5]. Yer uchastkasiga bo'lgan huquqning davlat reyestrda qayd etilishi huquq egasining manfaatlarini himoya qilish, nizolarni kamaytirish va ko'chmas mulk bilan bog'liq bitimlarning ishonchligini oshirishga xizmat qiladi. Shu jihatdan Xorazm viloyatida kadastr, notariat, soliq, qurilish va bank tizimlari o'rtasidagi elektron ma'lumot almashinuvini kuchaytirish dolzarb ahamiyatga ega.

"Qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagan yer uchastkalarini xususiylashtirish to'g'risida"gi Qonun yer uchastkalarini xususiylashtirishning qonuniylik, ixtiyoriylik, haq to'lash va axborot ochiqligi kabi prinsiplarini belgilab berdi [4]. Mazkur qonun tadbirkorlik va uy-joy obyektlari joylashgan yer uchastkalarining iqtisodiy



muomalaga kirishini kengaytirish uchun huquqiy asos yaratdi. Elektron onlayn-auksionlarni tashkil etishga oid hukumat qarorlari esa yer uchastkalari hamda ularga bo'lgan huquqlarni ochiq raqobat asosida realizatsiya qilish mexanizmini rivojlantirdi [7; 6].


Jahon bankining O'zbekistonda ko'chmas mulkni ro'yxatga olish va kadastr tizimini modernizatsiya qilishga qaratilgan loyihasida yagona elektron reyestr, raqamli kadastr va aholiga qulay davlat xizmatlarini shakllantirish ustuvor vazifa sifatida belgilangan [12]. Keyingi bosqichda geofazoviy ma'lumotlarning mavjudligi, sifati va davlat organlari o'rtasida almashinuvini yaxshilashga e'tibor qaratilmoqda. Bu yo'nalish Xorazm viloyatida yer uchastkalarining investitsion imkoniyatlarini baholash, bo'sh yerlarni aniqlash, hududiy rejalashtirish va auksion lotlarini tayyorlash jarayonlarini takomillashtirish uchun muhimdir.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda Xorazm viloyatida yer bozori infratuzilmasining holatini baholash uchun tizimli tahlil, qiyosiy tahlil, statistik guruhlash va umumlashtirish usullaridan foydalanildi. Empirik tahlil 2026-yil 5-iyun holatiga yer uchastkalarini xususiylashtirish bo'yicha arizalar, berilgan orderlar, rad etish holatlari va tushgan mablag'lar haqidagi rasmiy ma'lumotlarga asoslandi. Olingan natijalar asosida mavjud muammolar aniqlanib, yer bozori infratuzilmasini takomillashtirishning ustuvor yo'nalishlari ishlab chiqildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Xorazm viloyatida yer uchastkalarini xususiylashtirish bo'yicha 2026-yil 5-iyun holatiga jami 30 838 ta ariza kelib tushgan bo'lib, shundan 1 614 tasi 2026-yil davomida qabul qilingan. Arizalarning 13 064 tasi vakolatli organlar tomonidan, 6 034 tasi esa fuqarolar to'lovni amalga oshirish jarayonida rad etilgan. Shuningdek, 92 ta ariza ko'rib chiqish, 57 ta ariza esa to'lovni amalga oshirish bosqichida bo'lgan. Mazkur ko'rsatkichlar hududda yer uchastkalarini xususiylashtirish jarayonida arizalarni ko'rib chiqish, rad etish sabablarini o'rganish va to'lov tartib-taomillarini soddalashtirish zarurligini ko'rsatadi (1-rasm).




1-rasm. Xorazm viloyatida yer uchastkalarini xususiylashtirish bo'yicha kelib tushgan arizalarning ko'rib chiqilish holati (05.06.2026)¹.

1 O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining rasmiy sayti: www.cbu.uz ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.



Xorazm viloyatida yer uchastkalarini xususiylashtirish jarayoni doirasida 2026-yil 5-iyun holatiga jami 11 591 ta order berilgan bo'lib, ularning 599 tasi 2026-yil hissasiga to'g'ri keladi. Xususiylashtirishdan tushgan jami mablag' 37 458,7 mln so'mni tashkil etgan, shundan 3 794,5 mln so'mi 2026-yil davomida kelib tushgan. Kunlik o'rtacha ko'rsatkich bo'yicha 14 ta ariza qabul qilinib, 3 ta order berilgan hamda 5,9 mln so'm mablag' tushgan. Mazkur natijalar hududda yer uchastkalarini xususiylashtirish jarayoni izchil davom etayotganini ko'rsatadi (2-rasm).



2-rasm. Xorazm viloyatida yer uchastkalarini xususiylashtirish bo'yicha berilgan orderlar va tushgan mablag'larning asosiy ko'rsatkichlari (05.06.2026)².

Tahlil natijalari Xorazm viloyatida yer uchastkalarini xususiylashtirishga talab mavjud bo'lsa-da, arizalarning yakuniy order bilan rasmiylashtirish darajasi yetarlicha yuqori emasligini ko'rsatdi. Jumladan, jami 30 838 ta arizaga nisbatan 11 591 ta order berilgan bo'lib, bu umumiy arizalarning 37,6 foizini tashkil etadi. Vakolatli organlar tomonidan 13 064 ta yoki 42,4 foiz ariza rad qilingan. Fuqarolarning to'lov jarayonida rad etilgan 6 034 ta arizasi ham hisobga olinsa, jarayon yakuniga yetmagan arizalar salmog'i sezilarli darajada yuqori ekanligi kuzatiladi. Bunday holat taqdim etilgan hujjatlarning belgilangan talablarga mos kelmasligi, yer uchastkalariga oid kadastr ma'lumotlaridagi tafovutlar, vakolatli tashkilotlar o'rtasidagi axborot almashinuvi va to'lov jarayonidagi tashkiliy muammolar bilan bog'liq bo'lishi mumkin.

2026-yilda kelib tushgan 1 614 ta arizaga nisbatan 599 ta order berilgan bo'lib, ularning o'zaro nisbati 37,1 foizni tashkil etgan. Shu davrda xususiylashtirishdan 3 794,5 mln so'm mablag' tushgani bir orderga o'rtacha 6,3 mln so'm to'g'ri kelishini ko'rsatadi. Taqqoslash uchun, jami davrda 11 591 ta order hisobidan tushgan 37 458,7 mln so'm mablag'ning bir orderga to'g'ri keladigan o'rtacha miqdori 3,2 mln so'mni tashkil etadi. Demak, 2026-yilda rasmiylashtirilgan orderlar bo'yicha o'rtacha tushum avvalgi davrlarning umumiy o'rtacha ko'rsatkichiga nisbatan qariyb ikki baravar yuqori bo'lgan. Bu xususiylashtirilayotgan yer uchastkalarining qiymati, maydoni yoki joylashuvi tarkibida muayyan o'zgarishlar yuz berganini anglatishi mumkin.

Aniqlangan natijalar Xorazm viloyatida yer bozori infratuzilmasini rivojlantirishda arizalar sonini ko'paytirishdan ko'ra, ularni muvaffaqiyatli yakunlash darajasini oshirish muhimligini ko'rsatadi. Buning uchun rad etish sabablarini turlar va hududlar bo'yicha muntazam tahlil qilish, ariza topshirishdan oldingi elektron tekshiruv mexanizmini joriy etish, kadastr ma'lumotlarini yangilash, vakolatli organlar o'rtasida avtomatik axborot almashinuvini kengaytirish hamda fuqarolarga to'lov tartibi bo'yicha aniq tushuntirish va eslatmalar berish zarur. Mazkur choralar arizalarni ko'rib chiqish muddatini qisqartirish, rad etilgan murojaatlar ulushini kamaytirish, xususiylashtirish jarayonining shaffofligini oshirish va hudud yer bozori infratuzilmasining iqtisodiy samaradorligini mustahkamlashga xizmat qiladi.

² O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining rasmiy sayti: www.cbu.uz ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.



XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari Xorazm viloyatida yer uchastkalarini xususiylashtirish jarayoni izchil amalga oshirilayotganini, biroq yer bozori infratuzilmasining ayrim yo'nalishlarini yanada takomillashtirish zarurligini ko'rsatdi. 2026-yil 5-iyun holatiga jami 30 838 ta ariza kelib tushgan bo'lsa, ular asosida 11 591 ta order berilgan. Arizalarning sezilarli qismi vakolatli organlar hamda fuqarolarning to'lovni amalga oshirish jarayonida rad etilgani xususiylashtirish tartib-taomillarini soddalashtirish, kadastr ma'lumotlarining aniqligini oshirish va murojaatchilarga ko'rsatiladigan axborot xizmatlarini yaxshilash zarurligini anglatadi.

Yer uchastkalarini xususiylashtirishdan jami 37 458,7 mln so'm, shu jumladan, 2026-yilda 3 794,5 mln so'm mablag' tushgan. Bu hududda yer uchastkalarini qonuniy iqtisodiy muomalaga kiritish budjet tushumlarini oshirish, mulkiy huquqlarni mustahkamlash va investitsion faollikni rag'batlantirish imkonini berayotganini ko'rsatadi. Shu bilan birga, arizalar va berilgan orderlar o'rtasidagi farq yer bozori infratuzilmasining tashkiliy, huquqiy va raqamli mexanizmlarini o'zaro uyg'unlashtirishni talab qiladi.

Tadqiqot natijalaridan kelib chiqib, quyidagi takliflar ishlab chiqildi:

1. Arizalarni topshirishdan oldin yer uchastkasining kadastr holati, huquqiy cheklovlari, hujjatlarning to'liqligi va to'lov imkoniyatini avtomatik tekshiruvchi elektron dastlabki nazorat tizimini joriy etish lozim.

2. Rad etilgan arizalarni sabablari, hududlari va arizachilar toifalari bo'yicha tasniflash hamda natijalarini muntazam tahlil qilib borish zarur. Bu eng ko'p uchraydigan muammolarni aniqlash va ularni bartaraf etishga qaratilgan aniq choralarni belgilash imkonini beradi.

3. Yer uchastkalarining joylashuvi, maydoni, foydalanish maqsadi, infratuzilma bilan ta'minlanganligi va hududiy xususiyatlarini hisobga oluvchi shaffof baholash mexanizmini takomillashtirish maqsadga muvofiq.

4. Xorazm viloyatida yer bozori holatini baholovchi hududiy monitoring tizimini yaratib, unda arizalar, orderlar, rad etish sabablari, tushumlar, ko'rib chiqish muddati va foydalanuvchilar qoniqish darajasini ifodalovchi ko'rsatkichlarni muntazam e'lon qilib borish tavsiya etiladi.

Mazkur takliflarning amaliyotga joriy etilishi yer uchastkalarini xususiylashtirish jarayonining tezkorligi va shaffofligini oshirish, rad etilgan arizalar ulushini kamaytirish, mulkiy huquqlar kafolatini mustahkamlash hamda Xorazm viloyatida samarali va zamonaviy yer bozori infratuzilmasini shakllantirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasining Yer kodeksi, 1998-yil 30-aprel [Elektron resurs]. – URL: <https://lex.uz/docs/-152653> (murojaat qilingan sana: 2026.08.24).
2. O'zbekiston Respublikasining "Davlat yer kadastr to'g'risida"gi Qonuni, 1998-yil 28-avgust, № 666-I [Elektron resurs]. – URL: <https://lex.uz/docs/-17036> (murojaat qilingan sana: 2026.08.24).
3. O'zbekiston Respublikasining "Davlat kadastrlari to'g'risida"gi Qonuni, 2000-yil 15-dekabr, № 171-II [Elektron resurs]. – URL: <https://lex.uz/docs/-29794> (murojaat qilingan sana: 2026.08.24).
4. O'zbekiston Respublikasining "Qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagan yer uchastkalarini xususiylashtirish to'g'risida"gi Qonuni, 2019-yil 13-avgust, № O'RQ-552 [Elektron resurs]. – URL: <https://lex.uz/docs/-4471684> (murojaat qilingan sana: 2026.08.24).
5. O'zbekiston Respublikasining "Ko'chmas mulkka bo'lgan huquqlarni davlat ro'yxatidan o'tkazish to'g'risida"gi Qonuni, 2022-yil 28-noyabr, № O'RQ-803 [Elektron resurs]. – URL: <https://lex.uz/docs/-6297080> (murojaat qilingan sana: 2026.08.24).
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yer uchastkalarini ijaraga berish tartibini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni, 2024-yil 18-yanvar, № PF-15 [Elektron resurs]. – URL: <https://lex.uz/docs/-6764191> (murojaat qilingan sana: 2026.08.24).
7. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Elektron onlayn-auksion va tanlovlarni tashkil etish hamda o'tkazish tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori, 2022-yil 12-yanvar, № 18 [Elektron resurs]. – URL: <https://lex.uz/docs/-5819662> (murojaat qilingan sana: 2026.08.24).
8. Deininger K. Land policies for growth and poverty reduction / K. Deininger. – Washington, DC: World Bank; Oxford University Press, 2003. – 239 p.
9. Djanibekov N. Farm restructuring and land consolidation in Uzbekistan: New farms with old barriers / N. Djanibekov, K. van Assche, I. Bobojonov, J.P.A. Lamers // Europe-Asia Studies. – 2012. – Vol. 64. – № 6. – P. 1101–1126. – DOI: 10.1080/09668136.2012.691720.
10. Food and Agriculture Organization of the United Nations. Voluntary guidelines on the responsible governance of tenure of land, fisheries and forests in the context of national food security. – Rome: FAO, 2012. – 47 p.



11. Williamson I. Land administration for sustainable development / I. Williamson, S. Enemark, J. Wallace, A. Rajabifard. – Redlands, California: ESRI Press Academic, 2010. – 487 p.
12. World Bank. Modernization of real property registration and cadastre project: Republic of Uzbekistan [Elektron resurs]. – Washington, DC: World Bank, 2016. – URL: <https://documents.worldbank.org/en/publication/documents-reports/documentdetail/690831467989526521> (murojaat qilingan sana: 2026.08.24).



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz HAKIMOV

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Hasan MAQSUDOV

2026. № 8/2

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>